

MAMLAKATIMIZ TIJORAT BANKLARIDA ISLOM MOLIYASI INSTRUMENTLARIDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH

IMPROVING THE USE OF ISLAMIC FINANCE INSTRUMENTS IN COMMERCIAL BANKS OF OUR COUNTRY

**¹Xaitov Shaxzod
Sharipboyevich**

*¹"Biznesni rivojlantirish banki" ATB Chakana biznes
departamenti, direktor o'rinbosari*

Annotatsiya Abstract

Uzb. - Ushbu maqolada mamlakatimiz tijorat banklari faoliyatida islom moliyasi instrumentlaridan foydalanishni takomillashtirish masalalari tadqiq etiladi. Shuningdek, islom moliyasi tizimining nazariy asoslari, uning shakllanish va rivojlanish bosqichlari, shuningdek, respublikamiz moliya bozorida ushbu instrumentlarning qo'llanilish holati tahlil qilinadi. Tijorat banklarida mushoraka, mudoraba, murabaha hamda sukuk kabi islomiy moliyaviy vositalarning joriy etilishi va ularning iqtisodiy samaradorligini oshirish imkoniyatlari ilmiy asosda ko'rib chiqiladi. Bundan tashqari, O'zbekistonda tijorat banklari tomonidan islom moliyasi xizmatlarini kengaytirishda mavjud institutsional, tashkiliy-huquqiy va metodologik muammolar aniqlanib, ularni bartaraf etish bo'yicha muallifning taklif va tavsiyalari ilgari suriladi. Mazkur maqola mamlakatimizda islom bankchiligi va nobank kredit tashkilotlari orqali mikromoliyalashtirishni rivojlantirish, moliyaviy inklyuzivlikni kuchaytirish hamda barqaror moliya tizimini shakllantirish istiqbollari yoritadi.

Eng. - This article explores the issues related to improving the use of Islamic finance instruments in the activities of commercial banks in our country. It analyzes the theoretical foundations of the Islamic finance system, the stages of its formation and development, as well as the current state of application of these instruments in the financial market of the republic. The study scientifically examines the implementation of Islamic financial instruments such as musharakah, mudarabah, murabaha and sukuk in commercial banks, along with the possibilities for enhancing their economic efficiency. In addition, the article identifies the existing institutional, organizational-legal, and methodological challenges in expanding Islamic financial services through commercial banks in Uzbekistan and presents the author's recommendations and proposals for addressing these issues. The study also highlights the prospects for developing microfinance through Islamic banks and non-bank credit organizations, strengthening financial inclusion, and establishing a stable financial system in the country.

**Kalit so'zlar:
Keywords:**

❖ *islom moliyasi, tijorat banklari, moliya instrumentlari, mushoraka, mudoraba, murabaha, sukuk, islom bankchiligi, nobank kredit tashkilotlari, mikromoliyalashtirish, moliyalashtirish mexanizmlari.*

❖ *islamic finance, commercial banks, financial instruments, musharakah, mudarabah, murabaha, sukuk, Islamic banking, non-bank credit organizations, microfinance, financing mechanisms.*

Kirish.

So'nggi yillarda islom moliya tizimi tushunchasi ko'plab mamlakatlar moliyaviy amaliyotida muhim o'rin egallab, global moliya bozorining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Nafaqat musulmon aholisi ko'pchilikni tashkil etmaydigan AQSh, Buyuk Britaniya kabi davlatlarda, balki dunyoning ko'plab rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarida ham islomiy moliyalashtirish an'anaviy bank xizmatlariga muqobil, barqaror va xavfsiz moliya mexanizmi sifatida keng qo'llanilmoqda. Ushbu jarayon islom bankchiligining iqtisodiy tizimdagi o'rnini chuqur tadqiq qilishni, shuningdek, moliyaviy vositalarning amaliyotga joriy etilish mexanizmlarini ilmiy asosda o'rganishni talab etmoqda.

O'zbekiston iqtisodiyoti uchun ham mazkur yo'nalishning ahamiyati ortib bormoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-dekabrda Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasida: "Mamlakatimizda islom moliyaviy xizmatlarini joriy etish bo'yicha huquqiy bazani yaratish vaqt-soati yetib keldi. Bu borada Islom taraqqiyot banki va boshqa xalqaro moliya tashkilotlari ekspertlari jalb etiladi" [1], - deb ta'kidlanishi mamlakatda islom moliyasini rivojlantirishga bo'lgan strategik e'tiborning kuchayganini ko'rsatadi.

Shuningdek, 2022-yil 20-aprelda qabul qilingan "Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyalashtirish faoliyati to'g'risida"gi O'RQ-765-son Qonuni islom moliyasi instrumentlarini qonunchilik asosida tatbiq etish va ularning amaliy mexanizmlarini shakllantirishda muhim bosqich bo'ldi. Mazkur hujjatlar milliy moliya tizimini diversifikatsiya qilish, aholining moliyaviy xizmatlarga bo'lgan kirish imkoniyatini kengaytirish hamda iqtisodiyotda barqaror moliyaviy muhitni shakllantirishga xizmat qilmoqda. Ayni paytda tijorat banklarida islom moliyasi instrumentlaridan foydalanish imkoniyatlari hali to'liq ishga tushirilmagan. Mushoraka,

mudoraba, murabaha, salam, ijara hamda sukuk kabi vositalarning bank amaliyotiga keng joriy etilishi investitsiya jarayonlarini faollashtirish, real sektor subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash, shuningdek, foizsiz moliya tamoyillariga asoslangan yangi xizmatlar bozorini shakllantirishga xizmat qilishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan, tijorat banklari uchun islom moliyasi instrumentlarini to'g'ri va samarali tatbiq etish, ularning risklarni boshqarish mexanizmlarini ishlab chiqish, shariatga muvofiqlik nazoratini yo'lga qo'yish va huquqiy-me'yoriy baza bilan uyg'unlashtirish dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Mavzuga doir adabiyotlar sharhi.

So'nggi yillarda turli iqtisodchi olimlarning ilmiy adabiyotlarida islom moliyasi, jumladan, islom bank xizmatlari mavzusiga oid ko'plab tushunchalar va ilmiy izlanishlar mavjud. Quyida Islom bank xizmatlari iqtisod, moliya va islom huquqi sohalaridagi mashhur olimlar fikrlarini keltirib o'tamiz. Jumladan: pokistonlik mashhur iqtisodchi, islom iqtisodiyoti va moliyasi bo'yicha mutaxassis Muhammad Nejatulloh Siddiqiyning asarlarida islom moliyasining jihatlarini, jumladan, islom banklarining ishlash mexanizmlari va tamoyillari mavjud [2]. Pokistonlik yana bir islomiy olim va iqtisodchi Muhammad Taqi Usmoniy bo'lib, u islomiy moliya va bank faoliyati borasidagi tadqiqotlari bilan mashhur. U bu mavzuda ko'plab kitoblar va maqolalar yozgan. Xususan, «Usmoniy Fors ko'rfazida islomiy moliya rivojlanishida muhim rol o'ynagan va 14 firma, jumladan, Bahrayn Markaziy banki va Abu-Dabi Islom bankining shariat kengashida o'rin olgan. U, shuningdek, Jiddadagi Islom fiqhi akademiyasi, ilg'or islomshunoslik banki a'zosi hisoblanadi va Usmoniy Pokistonda "Meezan Bank"ni tashkil qilganida islomiy bank kontseptsiyasini yaratgan» [3]. Usmoniy tomonidan taklif qilingan asosiy tushunchalardan biri islom bankchiligida foizlarni (ribolarni) taqiqlash

tamoyilidir. Islomda qarz mablag'laridan daromad olish adolatsiz hisoblanadi, shuning uchun Usmoniy Mudarabah (sheriklik), Ijara (lizing), Murabaha (savdo bitimi) va Sukuk (Islom obligatsiyalari) kabi muqobil moliyaviy vositalardan foydalanishni taklif qiladi.

Usmoniy islom bankchiligidagi axloqiy jihatlar muhimligini ham ta'kidlaydi. Unda adolat, oshkoralik, hisobdorlik va ijtimoiy mas'uliyat tamoyillariga amal qilishga chaqiriladi. Uning fikricha, bank operatsiyalari halollikka asoslanishi kerak. Usmoniy tomonidan taklif qilingan yana bir kontseptsiya Islomiy Mudaraba bank shartnomasidir. U omonatchilar va banklar o'rtasidagi hamkorlikning ushbu shaklidan foydalanishni taklif qiladi, bunda banklar omonatchilar mablag'larini boshqaruvchi vazifasini bajaradi va o'z ishi uchun komissiya oladi.

Usmoniy, shuningdek, islomiy banking orqali ijtimoiy adolatni targ'ib qilishga e'tibor qaratadi. U iqtisodiy rivojlanishga yordam beradigan va jamiyatdagi tengsizlikni kamaytiradigan moliyaviy mahsulotlarni ishlab chiqishga chaqiradi. Muhammad Taqi Usmoniyning islom banki tushunchalari musulmon dunyosining ko'plab mamlakatlarida ushbu sohaning rivojlanishiga asos bo'ldi. Uning asarlari islom moliya bozori tamoyillari va amaliyotining shakllanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan.

Livanlik iqtisodchi Ahmad El Najjar, zamonaviy islom bank tizimi asoschilaridan biri hisoblanadi. 1963-yilda u Misrda dunyodagi birinchi islomiy bank bo'lgan "Nasser Social Bank"ga asos solgan. El-Najjar islom bankining axloqiy jihatlari muhimligini ta'kidlaydi. Uning ta'kidlashicha, islomiy moliya institutlari nafaqat foydani ko'paytirishga emas, balki ijtimoiy manfaat va barqaror rivojlanishga erishishga intilishi kerak. Bunga ijtimoiy investitsiyalar, ekologik fondlar, xayriya dasturlari va boshqa chora-tadbirlar orqali erishish mumkin.

El-Najjar, shuningdek, an'anaviy islom banklari va an'anaviy moliya institutlari

o'rtasida hamkorlik qilishga chaqiradi. Uning fikricha, bu islom banklari faoliyatining shaffofligi va samaradorligini oshirishga yordam beradi, shuningdek, innovatsiyalar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Umuman olganda, Ahmad El-Najjarning islom bankchiligi haqidagi ilmiy qarashlari uning islom tamoyillari va qadriyatlariga mos keladigan moliyaviy tizimni rivojlantirish istagini aks ettiradi. U bank muassasalari faoliyatida axloqiy tamoyillar, barqarorlik va ijtimoiy mas'uliyatni talab qiladi deya ta'kidlaydi [4].

Muhammad Anvar moliya va bank sohasida taniqli pokistonlik olimdir. U islomiy moliyaga ixtisoslashgan va bu borada keng ko'lamli tadqiqotlar olib borgan. Muhammad Anvar o'z tadqiqotida islomiy moliyaning turli jihatlari, jumladan, islom banki, sug'urta, sarmoya va shariat tamoyillariga mos keladigan boshqa moliyaviy mahsulotlarni o'rgangan. Shuningdek, u islom moliyasida risklarni boshqarish sohasidagi turli strategiya va uslublarni tahlil qilgan [5].

Suriyalik olim Monzer Kahf, islomiy moliya va bank ishi bo'yicha ko'plab maqola va kitoblar muallifi. Kahf iqtisodiy jihatdan kam rivojlangan mamlakatlar rivojlanishi uchun islom banklaridan foydalanishni qo'llab-quvvatlaydi. Uning fikricha, bunday banklar kam daromadli yoki an'anaviy banklarga kirish imkoni bo'lmagan shaxslar uchun moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatini ta'minlay oladi. Bu barqaror rivojlanishga hissa qo'shishi va jamiyatdagi tengsizlikni kamaytirishi mumkin. Monzer Kahf islomiy banklarni suiiste'mol qilishning oldini olish va barqarorligini saqlab qolish uchun qat'iy tartibga solish va nazorat qilish zarurligiga ishora qiladi. U islom moliya tizimidagi risklarni samarali monitoring qilish va baholash muhimligini ta'kidlaydi. Umuman olganda, Monzer Kahf islom banklariga axloqiy va ijtimoiy mas'uliyatli moliyaviy tizimni yaratish vositasi sifatida ijobiy nuqtai nazarga ega. U ularni, ayniqsa, kambag'allar uchun

iqtisodiy rivojlanishga erishish vositasi sifatida ko'radi [6].

Bangladeshlik olim Muhammad Akram Xon taniqli islom iqtisodchisi va faylasufi bo'lib, islom moliyasining rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatgan. Uning islom bank ishi haqidagi ilmiy qarashlari islom huquqi (shariat) va iqtisodiy adolat tamoyillariga asoslanadi.

Xonning fikricha, islom banklari ko'pincha foiz stavkalari asosida qarz oluvchilar bilan shug'ullanadigan an'anaviy tijorat banklaridan farqli ravishda "risk va mukofot" tamoyiliga amal qilishi kerak. Uning fikricha, foizdan foydalanish shariatga ziddir, chunki bu islomda taqiqlangan noaniqlik yoki tavakkalchilikdan foyda olishni anglatadi. Buning o'rniga Xon islom tamoyillari asosida tadbirkorlar va kichik biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadida jamg'armalar va investitsion hisobvaraqlar tashkil etishni qo'llab-quvvatlaydi. Xon, shuningdek, islom banklarida axloqiy xulq-atvorni qo'llab-quvvatlaydi, shaffoflik, ochiqlik va mijozlarga nisbatan mas'uliyatni targ'ib qiladi. U ekspluatatsiya yoki tengsizlikka olib kelishi mumkin bo'lgan moliyaviy operatsiyalardan qochishga chaqiradi va moliyaviy mahsulotlarni ishlab chiqishda jamoatchilik manfaatlarini hisobga olish muhimligini ta'kidlaydi.

Umuman olganda, Muhammad Akramxonning islom bank ishi haqidagi ilmiy qarashlari shariat tamoyillariga, iqtisodiy adolat va axloqiy me'yorlarga rioya qilishga intilishdan iborat. U islomiy qadriyatlarni aks ettiruvchi va jamiyatning barqaror rivojlanishiga yordam beruvchi muqobil moliyaviy vositalarni ishlab chiqishga chaqiradi [7].

Muhammad Yusuf Siddiq taniqli islom iqtisodchisi va voiz bo'lib, islom banklaridan shariat tamoyillariga muvofiq foydalanishni targ'ib qiladi. Uning fikricha, islom banklari islom huquqi tamoyillariga asoslangan moliyaviy vositachilikning muqobil modelini

taklif qiladi. Siddiq moliyaviy tizimda axloqning muhimligini ham ta'kidlaydi. Uning fikricha, islom banklari adolat, halollik va ijtimoiy mas'uliyat tamoyillariga amal qilishi kerak. Ular jamiyatga foyda keltiradigan loyihalarga sarmoya kiritishlari va shubhali yoki noqonuniy bitimlarga aralashmasliklari kerak. Biroq, ba'zi tanqidchilar islom banklaridan foydalanishning cheklovlari va qiyinchiliklarini ta'kidlashadi. Masalan, ular likvidlik etishmasligi yoki ba'zi shariat qoidalarini qayta ko'rib chiqish zarurati muammosiga duch kelishi mumkin. Shuningdek, Muhammad Yusuf Siddiq islom banklaridan shariat tamoyillariga asoslangan moliyaviy tizimning muqobil modeli sifatida foydalanishni qo'llab-quvvatlaydi. Uning fikricha, bunday banklar islom dinining axloqiy tamoyillari asosida iqtisodiyot va jamiyat rivojiga hissa qo'shishi mumkin [8].

Sidun Xoron va Vana Nursufiza Vana Azmi kabi boshqa islom ulamolari «islom iqtisodi adolat, altruizm, hamkorlik, xolislik, mo'tadillik va e'tibor kabi axloqiy qadriyatlarga asoslanganligini ta'kidlaydilar. Shunga ko'ra, nafaqat bank tizimi, balki iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari ham ana shu qadriyatlarni hisobga olgan holda faoliyat yuritishi kerak. Shuningdek ular, islom va tijorat banklari tushunchalarini ajratish taklif qiladi, chunki islom banklari islom huquqi yoki shariat qonunlariga asoslangan faoliyat tamoyillarini hisobga olgan holda bank faoliyatini amalga oshirish maqsadida tashkil etilgan muassasalar, tijorat banklari esa, aksincha faqat biznes maqsadlariga erishish uchun unda diniy ta'limotlar umuman hisobga olinmaydi» [9] deya ta'kidlashadilar.

O'z navbatida, Vahba Az-Zuhayli «islomiy moliya bankining asosiy maqsadi musulmon jamiyatini qayta tiklashni tashkil etish va musulmonlar o'rtasidagi hamkorlikni islom qonunlari bilan kelishuv asosida amalga oshirish ekanligini ta'kidlaydi. Shunday ekan, har qanday islomiy moliya instituti jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini qo'llab-

quvvatlashning qo'shimcha vositasi sifatida foizsiz kreditlar berish orqali muhtojlarga yordam ko'rsatishga e'tibor qaratishi zarurdir» [10].

Bular islom bank ishi sohasida tadqiqot olib borayotgan olimlarning bir necha misolidir. Bu sohaga o'z hissasini qo'shgan boshqa olimlar ham ko'p. Bu va boshqa ko'plab olimlar o'zlarining ilmiy izlanishlari, nashrlari va bu sohadagi o'rgatishlari orqali islom bank ishi nazariyasi va amaliyotini rivojlantirishga katta hissa qo'shdilar. Shuningdek, chet ellik olimlarning qarashlaricha, islom moliya xizmatlari, avvalambor, iqtisodiyotda tijorat banklari va mamlakat taraqqiyatiga hissa qo'shadigan innovatsion xizmatlar yoki moliya sanoati uchun innovatsion loyihalardir. Yuqoridagi keltirilgan fikrlarga asoslanganholda, bizning fikrimizcha, islom bankini qonunlar asosida faoliyat yurituvchi mega-regulyator sifatidagi kredit banklari va milliy banklar majmui sifatida qarashimiz mumkin. Shariat va ijtimoiy yo'nalishga ega bo'lish, har bir alohida mamlakatda tasdiqlangan pul-kredit siyosati doirasida va pul resurslarini jamiyat manfaatlariga muvofiq qayta taqsimlashni ta'minlash asosiy vazifalardandir.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu tadqiqotda tijorat banklarida islom moliyasi instrumentlaridan foydalanishni takomillashtirish masalalarini o'rganish uchun bir nechta ilmiy-uslubiy yondashuvlardan foydalanildi. Avvalo, ilmiy abstraksiyalash usuli yordamida islom moliyasi instrumentlarining mohiyati, ularning tijorat banklari faoliyatidagi o'rni va zarurligi nazariy jihatdan umumlashtirildi. Bu usul islomiy moliyalashtirishning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirishning ilmiy ahamiyatini aniqlashga imkon berdi. Shuningdek, qiyosiy tahlil usuli asosida rivojlangan islom moliya tizimiga ega mamlakatlar (Malayziya, Turkiya, BAA, Saudiya Arabistoni) tajribasi O'zbekiston bank

tizimidagi amaliyot bilan solishtirildi. Bu solishtirish islomiy instrumentlarni joriy etishda qaysi yo'nalishlarni kuchaytirish zarurligini belgilashga yordam berdi. Guruhlash va tasniflash usuli murabaha, musharaka, mudaraba va ijara kabi asosiy islomiy instrumentlarni ularning mazmuni va qo'llanish sohalari bo'yicha tizimli o'rganishga xizmat qildi. Bundan tashqari, retrospektiv va istiqbolli tahlil orqali islom moliyasining dunyodagi tarixiy rivoji hamda O'zbekiston sharoitida kelajakda qo'llanish imkoniyatlari baholandi. Empirik tahlil usuli asosida tijorat banklarining amaldagi faoliyati, mavjud islomiy mahsulotlar va ularni qo'llashdagi cheklovlar o'rganildi. Mazkur metodlar tadqiqotning asosiy yo'nalishlarini aniq belgilashga, xulosalar chiqarishga va islom moliyasi instrumentlaridan foydalanishni takomillashtirish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqishga imkon berdi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Jahonda islom moliya tizimi foyda va zararni bo'lishish hamda real aktivlarga asoslangan moliyalashtirishni nazarda tutadi. Zamonaviy bank tizimidan farqli ravishda, unda foyda sherikchilikka asoslanadi. Ya'ni, bank mijoz talabi hamda moliya mahsulotlari turiga qarab asbob-uskuna, tovar, xom-ashyolar olib berishi yoki ularni ijaraga berishi mumkin. Shuningdek, islomiy moliyalashtirishda pul o'zi mustaqil tarzda daromad keltiruvchi vosita emas, balki real iqtisodiy faoliyatni qo'llab-quvvatlovchi mexanizm sifatida qaraladi. Moliyaviy operatsiyalarda spekulyativ harakatlarning cheklanishi bozor barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Risklarning adolatli taqsimlanishi esa ham bank, ham mijoz manfaatlarini muvozanatda ushlab turadi. Natijada, tizim iqtisodiy o'sishni rag'batlantiruvchi model sifatida shakllanadi.

Quyidagi 1-jadvalda jahonda keng tarqalgan islom moliyasi instrumentlari haqida batafsil to'xtalib o'tamiz.

1-jadval

Islom moliyasi instrumentlari turlari¹

<i>Instrument nomi</i>	<i>Moliyalashtirishning mohiyati va mazmuni</i>
Murobaha	<i>bu tomonlar o'rtasida oldi-sotdi shartnomasi ustama haq evaziga bo'lishini anglatadi. Murobaha Islom banklari tomonidan amalga oshiriladigan aktivlarni moliyalashtirishning eng keng tarqalgan usuli hisoblanadi.</i>
Muzoraba	<i>bu investor («Robbul mol») va tadbirkor («Muzorib») o'rtasidagi foydani taqsimlash shartnomasi. Muzoraba shartnomasida investor foydani kelishilgan nisbatda yoki foizda tadbirkor bilan taqsimlashga rozilik beradi.</i>
Mushoraka	<i>bu sherikchilikning bir shakli. Buni odatdagi kapital bozoridagi aksiyalarni sotib olishga o'xshatish mumkin, ammo qilingan investitsiyalar shariat tamoyillariga mos keladigan aksiyalar va moliyaviy qimmatli qog'ozlar yoki boshqa aktivlar bilan cheklanishi kerak.</i>
Ijara	<i>o'z nomi bilan, ijara yoki lizing shartnomasidir. Ijaraga berilgan mulk huquqi buyurtmachiga o'tkazish imkoniyati ko'zda tutilgan bo'lsa, ijara shartnomasi «Ijara muntahia bi tamlik» (mulkdorlik bilan yakunlanuvchi ijara) deb yuritiladi.</i>
Takoful	<i>arabchada «kafala» so'zidan kelib chiqqan bo'lib, kafolat berish ma'nosini beradi. Aniqroq aytganda, bu «takafala» fe'lidan kelib chiqib, o'zaro kafolat berish va bir-birini himoya qilish ma'nosiga ega. Shuning uchun, so'zma-so'z tarjima qilinganda, bu o'zaro yordamni anglatadi.</i>
Salam	<i>xomashyo narxini darhol to'lash, xomashyoni esa kelishilgan kechiktirilgan muddatda yetkazib berish uchun sotib olishni anglatadi. Salam shartnomasida narx to'liq va oldindan to'lanadi. Ushbu turdagi shartnomalar xomashyo narxi o'zgarishi mumkin bo'lgan joylarda qo'llanilishi mumkin.</i>
Istisna	<i>bu sotiladigan ob'ektni qurish, ishlab chiqarish yoki tiklash uchun belgilangan narx bo'yicha, belgilangan muddat davomida, tomonlar o'rtasida belgilangan xususiyatlarga ega ob'ektni moliyalashtirish shartnomasi.</i>
Sukuk	<i>mulkchilik manfaatlarini ifodalovchi teng nominaldagi investitsiya sertifikat. Sukukni sarmoyadorlarga foyda keltiradigan va an'anaviy aktivlar bilan ta'minlangan qimmatli qog'ozga o'xshash Islom moliyalashtirish instrumenti deb tasavvur qilsa bo'ladi.</i>

Yuqoridagi jadval asosida kamayib boruvchi mushoraka bitimi asosida uy-joy sotib olish haqida batafsil to'xtalib o'tamiz. Kamayib boruvchi mushoraka shartnomasi quyidagi bitimlar amalga oshirilishini ko'zda tutadi:

1. Ko'chmas mulkka nisbatan sherikchilik asosida egalik qilishni tashkillashtirish (Shirkat ul-milk);
2. Sarmoyador ulushini mijozga ijaraga berilishi;
3. Mijozning sarmoyador qismlarga bo'lingan ulushlarini sotib olish yuzasidan va'da berishi;
4. Sarmoyador ulushining mijoz tomonidan ma'lum muddat ichida sotib olinishi.

Mana endi ushbu bosqichlarni batafsil ko'rib chiqamiz:

Yuqoridagi qayd etilgan birinchi bosqich sherikchilik asosida mulkka egalik qilish, ya'ni shirkat ul-milkni tashkillashtirishdir. Shirkat ul-milk turli yo'llar bilan, jumladan tomonlar birgalikda mulk sotib olishlari bilan yuzaga kelishi mumkin. Buni barcha mazhab vakillari joiz deyishgan. Sherikchilik asosida mulkka egalik qilishga hech qanday monelik yo'q.


Ikkinchi bosqichda sarmoyador sotib olingan uy-joydagi ulushini o'zining mijoziga ijaraga beradi va evaziga ijara haqi oladi. Bu ham ochiq-oydin joiz amaldir, chunki kishi o'zining mulkdagi ulushini sherigiga ijaraga berishi borasida islom qoidalarida keltirilmagan.

Uchinchi bosqichda mijoz sarmoyadorning bo'linmas ulushini bir necha qismlarga bo'lib sotib oladi va bu savdo joiz

¹Iqtisodiy adabiyotlarni o'rganish asosida muallif tomonidan mustaqil tuzildi.

sanaladi. Bo'linmas ulush yerga tegishli bo'lsa ham, binoga taalluqli bo'lsa ham, bu ikkisini sotish barcha qoidalarga ko'ra joiz sanaladi.

Shuningdek, binodagi bo'linmas ulush sherikka sotilishini ham barcha qoidalarga to'g'ri keladi.



1-rasm. Kamayib boruvchi mushoraka bitimini amalga oshirish tartibi²

Ko'rib turganimizdek, yuqoridagi uch bosqichda ko'rib chiqilgan har bir bitim joizdir, ammo ularni bitta shartnomaga jamlasa bo'ladimi yoki yo'qmi, degan savol tug'iladi. Javob shuki, agar bunda bir bitim ikkinchisining bajarilishini shart qilsa, u holda bunday shartnoma tuzish shariatda taqiqlangan. Chunki islom huquqida mashhur qoida borki, unga ko'ra bir bitim ikkinchi bitimni sharti etib belgilanishi mumkin emas.

Aksincha, agar savdo bitimi hech qanday shartsiz tuzilsa, hamda ikki tomondan biri bir ishni qilishga shartnomadan alohida ravishda va'da bersa, savdoning durustligi bu berilgan va'daning bajarilishiga bog'liq bo'lmaydi. Va'da beruvchi va'dasini bajarsa ham, bajarmasa ham savdo shartnomasi kuchga kiraveradi. Agar va'dasidan qaytsa ham, savdo kuchda qolaveradi. Va'da berilgan tomon qilishi mumkin bo'lgan eng katta ish bu va'da beruvchi ustidan sud mahkamasiga arz qilishdir. Agar va'da beruvchi o'z va'dasini bajara olmasa va buning oqibatida ikkinchi tomon zarar ko'rsa, u holda u zararni qoplash uchun va'da berilgan tomon da'vo kiritishi mumkin.

Bundan ravshan bo'ladiki, alohida va

mustaqil ravishda qilingan va'da bitimni shartli qilib qo'ymaydi. Shuning uchun ham, bunday shartnoma qonuniy kuchga ega bo'ladi. Yuqoridagi tahlillar asosida uy-joy sotib olishni moliyalashtirish uchun kamayib boruvchi Mushoraka shartnomasini quyidagi tartibda amalga oshirsa bo'ladi:

a) Sherikchilik asosida mulkni sotib olish, uni ijaraga berish va sarmoyador ulushini qismlarga bo'lib sotish bo'yicha munosabatlarni bitta shartnoma hujjatiga jamlash mumkin emas. Sherikchilik asosida sotib olish va ijara shartnomalarini bir hujjatga jamlasa bo'ladi. Bu hujjatda sarmoyador mulkni birgalikda sotib olganlaridan keyin uni mijozga ijaraga berishga rozilik bildiradi. Ijara kelajak vaqtga bog'lanib amalga oshirilishi mumkin. Ayni damda mijoz sarmoyadarning ulushini ma'lum muddat ichida qismlarga bo'lib sotib olish bo'yicha bir tomonlama va'da berishi va sarmoyador ham o'z navbatida mijoz ulushning bir qismini sotib olganda ijara haqini tegishli ravishda kamaytirish majburiyatini olishi mumkin.

b) Har bir yangi ulush sotib olinayotgan vaqtda alohida taklif va qabul qilish orqali oldi-

²Muhammad Taqiy Usmoniyning "Islom moliyasiga kirish" kitobi asosida asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.

sotdi amalga oshirilishi lozim.

v) Mijoz ulushning bo'lingan qismlarini sotib olayotganda har bir qismning narxi uy-joyning o'sha savdo kunidagi bozor bahosiga asoslangan bo'lishi afzal hisoblanadi. Ammo, kelishilgan narxning mijozning sotib olish va'da xatida ko'rsatilishi ham joiz sanaladi.

Xulosa va takliflar.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, aholisi asosan musulmonlardan iborat bo'lgan yoki aholining katta qismini musulmonlar tashkil qiladigan qator davlatlar bor. Ayni paytda turli sabablarga ko'ra aholi tomonidan, davlat darajasida yoki an'anaviy bank hamjamiyati doirasida islom moliyasiga nisbatan noto'g'ri yoki noxolis fikr va munosabat shakllangan. Bu esa sohaning jamiyatdagi yuqori bo'lmagan ahamiyati, amalga tatbiq qilinishi, rivojlanishi va foydalanish darajasi pastligining asosiy sabablaridan biridir.

Buning uchun respublikamizda investitsiya faoliyatini islom moliya instrumentlari orqali moliyalashtirishni rivojlantirishga to'siq bo'layotgan quyidagi omillarni bartaraf etish darkor:

1. Shu bois, xalqaro islom tashkilotlari, ilmiy hamjamiyat, ta'lim muassasalari, islom bank-moliya muassasa va guruhlar o'zlarining tor milliy doirasidan tashqariga chiqishi va

islom moliyasini muvaffaqiyatli joriy qilgan davlatlar tajribasini aholi va milliy muvofiqlashtiruvchi tashkilotlar, moliya bozori ishtirokchilari va amaldorlar orasida keng targ'ib qilishi va shu orqali islom moliyasi mohiyatini qabul qilish va tushunib yetish darajasini oshirishi zarur.

2. Islom mikromoliya muassasalari ahamiyatini oshirish, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari va kichik biznesning ehtiyojlari hamda to'lov qobiliyatiga mos keluvchi moliya mahsulotlari yaratish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ijtimoiy moliyalashtirish usullaridan foydalanish ko'plab mamlakatlarda kuzatilayotgan ommaviy qashshoqlikni yengish va aholining katta qatlamini moliyaviy-iqtisodiy jarayonga jalb qilish va shu orqali, iqtisodiy faollikni jadallashtirish hamda sog'lom iqtisodiy o'sish uchun zarur sharoitlar yaratishga qodir.

3. Xalqaro islom tashkilotlari, ilmiy hamjamiyat, ta'lim muassasalari, islom bank-moliya muassasa va guruhlar o'zlarining tor milliy doirasidan tashqariga chiqishi va islom moliyasini muvaffaqiyatli joriy qilgan davlatlar tajribasini aholi va milliy muvofiqlashtiruvchi tashkilotlar, moliya bozori ishtirokchilari va amaldorlar orasida keng targ'ib qilishi va shu orqali islom moliyasi mohiyatini qabul qilish va tushunib yetish darajasini oshirishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 29.12.2020
2. Siddiqi M. N. et al. *Riba, bank interest and the rationale of its prohibition.* – Jeddah: Islamic Research and Training Institute, 2004.
3. Usmani M. M. T. *An introduction to Islamic finance.* – Brill, 2021. – T. 20.
4. A.N.Ahmad, M., Umar, A. A., Khamidi, M. F., & Idrus, A. (2014). *Financing PF2 projects: Opportunities for Islamic project finance.* *Procedia engineering*, 77, 179-187.
5. Muhammad Anwar, 1992. "Islamic Banking in Iran and Pakistan: A Comparative Study," *The Pakistan Development Review*, Pakistan Institute of Development Economics, vol. 31(4), pages 1089-1097.
6. M Kahf *Islamic banks: The rise of a new power alliance of wealth and shari'a scholarship- The politics of Islamic finance*, 2004.
7. Khan M. A. *What is wrong with Islamic economics?: analysing the present state and future agenda.* – Edward Elgar Publishing, 2013.
8. Siddiq M. Y. *An epigraphical journey to an eastern Islamic land //Muqarnas.* – 1990. – P. 83-108.
9. Khan M.F., Ziauddin A., Munawar I. *Money and Banking in Islam.* Institute of Policy Studies, 1983.
10. Al-Zuhaili W. *Financial Transactions in Islamic Jurisprudence.* Vol. 1. Beirut (Leb.): Dar al-Fikr, 2003.